

O'ZBEKISTON BUXGALTERIYA TIZIMINI RAQAMLASHTIRILISH JARAYONIDA MOLIVAVIY HISOBOT XALQARO STANDARTLARIGA MOSLASHTIRISH MASALALARI

Fazliddinov Zayniddin Jamoliddin o'g'li
Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti magistranti

Annotatsiya. Ushbu tezisdagi O'zbekiston buxgalteriya tizimini raqamlashtirish jarayoni va MHXSga moslashtirish masalalari o'rganilgan. Tezisdagi milliy buxgalteriya tizimi va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar, amaliy muammolar va raqamli transformatsiyani samarali amalga oshirish bo'yicha takliflar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, buxgalteriya tizimi, raqamlashtirish, MHXS, moliyaviy hisobot, standartlarga moslashish.

Аннотация. В данной диссертации изучен процесс цифровизации бухгалтерской системы Узбекистана и вопросы адаптации к международным стандартам финансовой отчетности (МСФО). Рассматриваются различия между национальной бухгалтерией и международными стандартами, практические проблемы и предложения по эффективной цифровой трансформации.

Ключевые слова: Узбекистан, бухгалтерская система, цифровизация, МСФО, финансовая отчетность, адаптация стандартов.

Annotation. This thesis examines the digitalization process of Uzbekistan's accounting system and the issues of aligning it with international financial reporting standards (IFRS). The study analyzes the differences between national accounting standards and international standards, practical challenges, and proposals for effective digital transformation.

Keywords: Uzbekistan, accounting system, digitalization, IFRS, financial reporting, standards alignment.

Kirish. O'zbekiston buxgalteriya tizimining raqamlashtirish jarayoni so'nggi yillarda mamlakat moliyaviy sohasining eng muhim ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Ushbu jarayonning asosiy maqsadi moliyaviy hisobotlarni tezkor, shaffof va xalqaro standartlarga (MHXS) mos ravishda shakllantirish orqali investitsiya muhitini yaxshilash va mamlakat moliya tizimini global moliyaviy bozorlar bilan uyg'unlashtirishdir. Raqamlashtirish orqali nafaqat moliyaviy hisobotlarning aniqligi oshirilishi kutilmoqda, balki banklar, aksiyadorlik jamiyatlari, sug'urta tashkilotlari va boshqa moliyaviy institutlar o'z faoliyatini real vaqt rejimida boshqarish imkoniga ega bo'lishi prognoz qilinmoqda. Bu o'z navbatida xalqaro tajriba va standartlarni milliy tizimga joriy etish, shuningdek, korporativ boshqaruv va auditning shaffofligini oshirish imkonini yaratadi. Shu tarzda, raqamlashtirish jarayoni nafaqat texnologik yangilanish, balki moliyaviy

tizimning strategik islohotlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mamlakatning iqtisodiy rivojlanish strategiyasiga xizmat qiladi.

2025 yil 15 sentyabrda qabul qilingan PQ-282-sonli Prezident qarori esa moliyaviy hisobotlarni raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida yuritish va nazorat qilishni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu qaror orqali O'zbekiston buxgalteriya tizimi raqamli transformatsiyaning navbatdagi bosqichiga o'tishi kutilmoqda va moliyaviy axborotning tezkorligi hamda sifatining oshishi prognoz qilinmoqda. Shu bilan birga, raqamlashtirish milliy buxgalteriya tizimi va MHXS standartlari o'rtasidagi tafovutlarni aniqlash va ularni moslashtirish bo'yicha ilmiy va amaliy yechimlar ishlab chiqishga xizmat qilishi kutilmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. So'nggi yillarda bu sohada olib borilgan tadqiqotlar milliy hisob standartlarini takomillashtirish, ularni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, shuningdek, raqamli texnologiyalar asosida moliyaviy hisobotlarni yuritishning ilmiy-nazariy asoslarini shakllantirishga qaratilgan. Mazkur yo'nalish bo'yicha ilmiy izlanishlar asosan MHXSning konseptual tamoyillarini amaliyotga tatbiq etish, hisob siyosatining zamonaviy talablarga moslashuvi va raqamlashtirish jarayonining samaradorligini oshirishga qaratilgan ilmiy qarashlarni birlashtiradi.

Mazkur masala bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda milliy standartlarni xalqaro talablar bilan uyg'unlashtirish, raqamli texnologiyalarni tatbiq etish, masalalarini yoritilgan. [1] Rizaev (2022) tomonidan milliy standartlarni MHXSga moslashtirish jarayonidagi metodologik muammolar, xususan aktivlar, majburiyatlar va hisob siyosati bo'yicha qo'llanilayotgan farqlar tahlil qilingan [2] Rizaev va Kadirov (2023) nomoddiy aktivlar misolida BHMS va MHXS o'rtasidagi asosiy farqlarni aniq ko'rsatib, MHXS 38 talablariga mos baholash va amortizatsiya siyosatini takomillashtirish bo'yicha takliflar berishgan.

Umuman olganda, adabiyotlar tahlili O'zbekistonda MHXSni joriy etish jarayoni kompleks yondashuvni talab qilishini, raqamlashtirish esa mazkur transformatsiyaning ajralmas omili ekanini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda metodologiya sifatida tahlil va sintez, ilmiy abstraktsiya, umumlashtirish hamda solishtirma-nazariy talqin usullari qo'llanildi. Shuningdek, ishning ilmiy asosini xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (MHXS) materiallari tashkil etadi. Tadqiqot davomida milliy buxgalteriya tizimi va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar aniqlanib, raqamlashtirish jarayonining samaradorligi, hisob siyosatini zamonaviy talablarga moslashtirish va investitsiya muhitini yaxshilashga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekiston buxgalteriya tizimining raqamlashtirilish jarayoni so'nggi yillarda sezilarli rivojlangan bo'lsa-da, amaliyotda bir qator muammolar mavjud. Ushbu muammolar raqamli transformatsiyaning samaradorligini va MHXSga to'liq moslashishni cheklamoqda.

1. Milliy buxgalteriya tizimi va MHXS o'rtasidagi tafovutlar Milliy

buxgalteriya hisobining 24 ta milliy standartlari va MHXS o'rtasida hisoblash va baholash usullarida sezilarli farqlar mavjud. Masalan, aktivlar va majburiyatlarni baholash usullari, daromadni tan olish va xarajatlarni tasniflashda milliy standartlar MHXSga to'liq mos kelmaydi. Shu sababli, aksiyadorlik jamiyatlari va banklar MHXSga mos keladigan moliyaviy hisobotlarni to'liq ishlab chiqishda qiyinchiliklarga duch kelmoqda.

2. Raqamli platformalar va integratsiya muammolari 2025 yil 15 sentyabrda qabul qilingan PQ-282-sonli Prezident qarori raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida moliyaviy hisobot yuritishni nazarda tutsa-da, platformalar hali barcha tashkilotlarda to'liq joriy qilinmagan. Shuningdek, mavjud tizimlar bir-biri bilan integratsiyalashmaganligi natijasida ma'lumotlar uzluksiz va tezkor ravishda yangilanmayapti.

3. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirishdagi muammolar MHXSga moslashish uchun yetarli miqdorda malakali buxgalterlar va auditorlar tayyor emas. 2022 yil aprel holatiga ko'ra, faqat yirik banklar va aksiyadorlik jamiyatlarida MHXS bo'yicha tayyorlangan kadrlar ishlamoqda. Kichik va o'rta biznes sub'ektlarida kadrlar malakasi yetarli emasligi MHXSga o'tishni sekinlashtiryapti.

4. Texnik va moliyaviy resurslar yetishmovchiligi. Raqamlashtirish jarayonida zamonaviy IT infratuzilma va dasturiy ta'minot yetarli emas. Ba'zi korxonalarda eski tizimlar ishlatilmoqda, bu esa MHXSga mos moliyaviy hisobotlarni shakllantirish jarayonini sekinlashtiradi. Shu bilan birga, kichik va o'rta biznes sub'ektlarida moliyaviy resurslar yetishmasligi yangi texnologiyalarni joriy etish imkonini cheklamoqda.

O'zbekiston buxgalteriya tizimining raqamlashtirilish jarayonida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish va MHXSga moslashuvni to'liq ta'minlash maqsadida quyidagi yechimlar va takliflar taklif etamiz:

1. Buxgalteriya hisobi uchun yagona milliy raqamli platformani ishlab chiqish. Sababi: Hozirgi kunda mavjud platformalar bir-biri bilan integratsiyalashmagan, ma'lumotlar real vaqt rejimida uzluksiz yangilanmayapti, bu esa moliyaviy hisobotlarning tezkor va ishonchli shakllanishini qiyinlashtiradi. Taklif: Milliy darajada yagona raqamli platforma yaratish, barcha aksiyadorlik jamiyatlari, banklar, kichik bizneslar va boshqa moliyaviy institutlar uchun majburiy qilish. Platforma MHXS talablariga mos keladigan hisob-kitob va hisobot tizimini o'z ichiga olishi lozim.

2. Milliy buxgalteriya tizimi va MHXSni uyg'unlashtirish Sababi: Hozirgi milliy standartlar va MHXS o'rtasidagi farqlar to'liq moslashuvni cheklamoqda. Taklif: 24 ta milliy standartdan kamida 15–20 tasini MHXSga to'liq moslashtirish yoki umuman MHXS asosida moliyaviy hisobot yuritishni joriy etish. Shu orqali milliy tizim xalqaro standartlar bilan uyg'unlashadi. Masalan, Qozog'iston va Gruziya kabi MDH mamlakatlari 2018–2021 yillarda BHMS standartlarini

bosqichma-bosqich chiqarib, faqat MHXSga moslashtirish orqali moliyaviy shaffoflik va investitsiya ishonchini oshirishga erishgan.

3. Kadrlar tayyorlash va malaka oshirish tizimini mustahkamlash Sababi: MHXS bo'yicha malakali kadrlar yetishmasligi MHXSga o'tishga salbiy ta'sir qilmoqda. Taklif: Faqatgina xodimlarning malakasini oshirish va ularga xalqaro sertifikat olishni qo'llab quvatlash bilan cheklanmasdan, Buxgalteriya va audit yo'nalishida ta'lim olayotgan universitet talabalariga MHXSni bepul o'rgatish va oqishni tugatayotganida xalqaro sertifikat olishga ko'mak berish lozim.

4. Texnik va moliyaviy resurslarni rivojlantirish Sababi: Kichik va o'rta biznes sub'ektlarida zamonaviy IT infratuzilma va moliyaviy resurslar yetarli emas. Taklif: Davlat tomonidan kichik va o'rta biznes sub'ektlarini moliyaviy va texnik qo'llab-quvvatlash dasturlarini ishlab chiqish, raqamli transformatsiya uchun grantlar va subsidiyalar ajratish.

Xulosa. Agar ushbu takliflar amalga oshirilsa, O'zbekiston buxgalteriya tizimi raqamlashtirilish jarayonida MHXSga to'liq moslashishi, moliyaviy hisobotlarning sifat va tezkorligi oshishi, xalqaro investitsiya muhitini yaxshilash imkoniyati yaratilishi va shu bilan birga, milliy buxgalteriya tizimi va xalqaro standartlar o'rtasidagi tafovutlar bartaraf etilishi, raqamli transformatsiya samaradorligi oshishiga ishonamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 24.02.2020 yildagi PQ-4611-son Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi qaror.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 24.04.2015 yildagi PF-4720-son Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risidagi farmon.

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 15.09.2025 yildagi PQ-282-son Moliyaviy hisob tizimini xalqaro talab va standartlarga muvofiq takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida qaror.

4. Rizaev N.K. Issues of adjusting national standards in compliance with international standards in Uzbekistan (Evidence from accounting policy). ILMIY TADQIQOT VA INNOVATSIYA, 2022 1(1), 94–104. Retrieved from. <http://ilmiytadqiqot.uz/index.php/iti/article/view/14>

5. Rizaev N. Kadirov S. Adjusting national accounting standards in compliance with international standards in Uzbekistan (as exemplified by intangible assets). PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS. VOLUME 2, ISSUE 19 JANUARY 2023. Collection of Scientific Works. BERLIN 11 JANUARY 2023 Interonconf.com. 93-108